

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

HAQQULOV SARVAR ABDUALIMOVICH

**O'ZBEKISTONDA ME'MORCHILIK VA ZAMONAVIY SHAHARSOZLIKNING
RIVOJLANISHI TARIXI
(1991–2021 yy)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Haqqulov Sarvar Abdualimovich

O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanishi
tarixi
(1991–2021 yy)..... 5

Хаккулов Сарвар Абдуалимович

История развития архитектуры и современного градостроительства
в Узбекистане (1991-2021 гг.)..... 25

Hakkulov Sarvar Abdualimovich

History of the development of architecture and modern urbanism in
Uzbekistan
(1991-2021)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

HAQQULOV SARVAR ABDUALIMOVICH

**O'ZBEKISTONDA ME'MORCHILIK VA ZAMONAVIY SHAHARSOZLIKNING
RIVOJLANISHI TARIXI
(1991–2021 yy)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1475 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "Ziyo Net" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Omonova Sarvinoz Orif qizi
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy taqrizchilar:

Hasanov Akram Muminovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Abriyev Ro'ziqul Bo'ronovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalari beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 10-avgust kuni soat 11.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10. e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (427-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 24-iyul kuni tarqatildi
(2026-yil 24-iyuldagi 26-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.J.Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash raisi, tarix fanlari
doktori, professor

N.N.Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash kotibi, tarix fanlari
nomzodi, dotsent

F.Sh.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, tarix fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunga kelib, dunyo mamlakatlar zamonaviy me'morchilik va shaharsozlik an'analari rivojlanib bormoqda. Dunyoning yetakchi davlatlarida shaharsozlik an'analari faol rivojlanmoqda. Arxitektura tashkilotlari uyushmasi (AAO), Xalqaro arxitektorlar ittifoqi (NCARB) va boshqa xalqaro tashkilotlar yuqoridagi masalalar yechimiga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu xalqaro tashkilotlar aholi zamonaviy arxitektura va shaharsozlik an'analari, qurilishlar ishlari sifatini yaxshilash va strategik dasturlar ishlab chiqish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirib kelmoqda.

Ayni paytda dunyoning AQSh (The American Institute of Architects), Germaniya (Bund Deutscher Architekten), Buyuk Britaniya (Royal Institute of British Architects), Yaponiya (Architectural Institute of Japan), Hindiston (Council of Architecture) kabi davlatlari ilmiy markazlarida me'morchilik va shaharsozlikning dolzarb muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni muhofaza qilish, zamonaviy shaharsozlik an'analarni yaratish, shahar qurilishida turli omillarni hisobga olish bo'yicha loyihalar ishlab chiqarish kabi masalalarda bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlik an'analardagi tarixiy tajribani ilmiy tadqiq qilib, yakuniy xulosalar chiqarish tarixchilar oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Istiqlolning ilk yillaridan boshlab arxitektura va qurilish sohasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilandiki, buning zahirida jahon andozalariga mos bo'lgan qurilishlarni amalga oshirish, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, tarixiy me'moriy yodgorliklar muhofazasini kuchaytirish kabi ulug'vor maqsadlar qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida katta qurilish va obodonlashtirish ishlari jadal olib borilayotgan, mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylangan hozirgi kunda sizlar (quruvchi-me'morlar)ning mas'uliyatli va sharaflı mehnatingiz ko'lami hamda ahamiyati tobora ortib bormoqda"¹. O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, ommaviy jamoat binolarini qurish, landshaft arxitekturasi va zamonaviy shaharsozlikni rivojlantirish borasida ko'pgina samarali ishlar olib borildi. Bu borada respublikada ko'pgina qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur soha tarixini ilmiy tadqiq etish natijasida qo'lga

¹ Shavkat Mirziyoyev qurilish sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi // <https://bugun.uz/> 2022-yil 13-avgust.

kiritilgan natijalardan tizimdagi islohotlarda foydalanish muhim ahamiyatga egaligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, bu tub ijobiy yangilanishlar tizim tarixini yangi metodologik yondashuvlar va manbalarga asoslanib yoritishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'RQ-676-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-139-son, 2022-yil 8-noyabrdagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-son, 2023-yil 19-apreldagi "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "O'zbekiston Respublikasida shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturi" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-139-son qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonlari va soha faoliyatini takomillashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishtirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mavzuga oid bajarilgan ilmiy tadqiqotlarni davri va mazmuniga muvofiq ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq: 1) mustaqillik davri adabiyotlari; 2) xorijiy nashrlar.

Birinchi guruhga, asosan, mustaqillik yillarida mualliflar tomonidan arxitektura va shaharsozlik tarixiga oid yozilgan monografiya va risolalarni kiritish mumkin. Jumladan, I.A.Adilova, N.Abdullayev, G'.Hotamov, Q.A'zamov, M.Miraxmedov, N.Bozorboyev, F.Bozorboyev, D.Isamuxamedova, L.A.Adilova, M.Ahmedov, D.Nazarova, A.Hasanov, M.M.Miralimov, S.Qodirova, M.Abdujabborova kabi mualliflar tomonidan nashr etilgan ishlar shular jumlasidandir². Mazkur tadqiqotlarda umumiy tarzda me'morchilik va shaharsozlik sohalari tarixi haqida ham ma'lumotlarni olish mumkin.

O'zbekiston me'morchiligida maxsus atamalarni, shu jumladan, qayta

² Адилова И.А. Ландшафт меъморчилиги. – Тошкент, 2002.; Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2007. – 236 б.; Ҳотамов Ғ., Аъзамов Қ. Мустақиллик майдони. Биз билган ва билмаган тарих. – Тошкент, 2008. – 43 б.; Қодирова Ф.Т. Ўзбекистоннинг замонавий архитектураси (XX аср – XXI аср боши). – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 240 б.; Қодирова Т. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморлиги. – Тошкент, 2010.; Қодирова Т. Санъат, архитектура ва шаҳарсозлик тарихи. – Тошкент, 2012.; Мустақиллик даври ўзбек меъморчилиги ва монументал ҳайкалтарошлик санъати. – Тошкент, 2011.

qurishga oid atamalarni shakllantirishda P.Zohidov, M.Ahmedov, D.Nozilov, A.O'rolov, X.Po'latov va boshqa yetakchi mutaxassislarning boshlang'ich ishlari ahamiyati katta hisoblanadi³. Shuningdek, X.Po'latov, T.Mamatmusayevlarning monografiyasi tarixiy joylarni (shaharlarni, majmualarni, mahallalarni) qayta qurish masalalariga bag'ishlangan. Unda tarixiy joylarni tadqiq etish hamda yangi zamon talablarini inobatga olgan holda qayta qurishni loyihalash usullari ko'rib chiqiladi⁴.

O'zbekiston landshaft arxitekturasini bo'yicha A.S.O'ralov, L.A.Adilova, K.D.Raximov, T.F.Qodirova, T.Sh.Mamatmusayev, N.V.Drobchenko, K.D.Sattarova, D.A.Nozilov, M.A.Talipov, Sh.I.Abdullayeva, M.T.Maxmudova, N.N.Fayzullayeva, A.E.Jonuzoqov⁵ kabi tadqiqotchilarning ishlari ham ahamiyatga molikdir. Shuningdek, bu yo'nalishda Bahrov Mustayevning tadqiqoti ham diqqatga sazovordir⁶.

O'zbekiston hududidagi tarixiy shaharlarining shakllanishi va rivojlanishini me'morchilik jihatdan o'rganishda T.Mamatmusayev, S.Manoyev, B.Qidirbayevning izlanishlarini ham ta'kidlab o'tish joiz⁷.

Shuningdek, B.J.Eshov, A.M.Xasanov, I.T.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida O'zbekiston hududida qadimgi va o'rta asrlar shaharsozligi masalalari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqot ishlarida shaharlar va

³ Аҳмедов М. Меъморий мерос. Шаҳарсозлик тарихи. – Тошкент, 2008; Аҳмедов М. Меъморий мерос. – Тошкент, 2011.; Пўлатов Х. – 132 б.; Мустақиллик даври ўзбек меъморчилиги ва монументал ҳайкалтарошлик санъати. – Тошкент, 2011.; Қодинова С., Абдуҷабборов М. Турар-жой ва жамоат биноларни лойиҳалаш. – Тошкент, 2020.

⁴ Пўлатов Х., Маматмусаев Т. Шаҳарсозлик ёдгорликларини қайта қуриш. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – 136 б.

⁵ Рахимов К.Д., Уралов А.С. Шарқ мамлакатларининг боғ-парк санъати. – Тошкент, 2013.; Қодинова Т.Ф., Маматмусаев Т.Ш. Улуғбек даврида боғсозлик санъати // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши, 2009-йил 2-сон.; Дробченко Н.В. История становления и пути развития ландшафтной архитектуры в Узбекистане.: Автореферат дисс... канд. арх. наук. – Ташкент, 2004.; Талипов М.А., Анорқулов Д.Ш. Ўзбекистонда боғ-парк санъати ривожланишининг долзарб масалалари // Самарқанд шаҳри архитектураси, замонавий шаҳарсозлик ва шаҳар қурилиши муаммолари мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2011.; Абдуллаева Ш.И. Проблемы реконструкции парков культуры и отдыха в Узбекистане // Ўзбекистонда шаҳарсозлик ва ландшафт архитектурасини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари мавзусидаги Респ. илм. амал. конф. материаллари. – Самарқанд, 2013.; Файзуллаева Н.Н. Мустақиллик йилларида Бухоро шаҳрининг боғ-паркчилиги санъатида эришган ютуқлари // “Меъморчилик ва қурилиш муаммолари” журнали, 2015-йил 2-сон.; Жонузоқов А.Э. Шаҳар муҳитида боғ-паркларнинг ўрни // “Меъморчилик ва қурилиш муаммолари” журнали, 2015-йил 4-сон.; Уралов А.С., Садикова С.Н. Ўрта Осиё анъанавий “чорбоғ” услуги ва замонавий боғ-парк санъати. – Тошкент, 2012.; Адилова Л.А., Уралов А.С. Боғ ва паркларни таъмирлаш. – Тошкент, 2017.

⁶ Мустаев Б. Ўзбек миллий боғи меъморий дастурини яратишнинг илмий-назарий ва лойиҳавий асосларини такомиллаштириш.: Архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 52 б.

⁷ Маматмусаев Т. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг шаклланиши ва ривожланиши.: Архитектура бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 77 б.; Shu muallif. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг типологик ривожланиши. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 212 б.; Shu muallif. Тарихий шаҳарларни сақлаш ва қайта қуриш тамойиллари // XXI аср – интеллектуал авлод асри шиори остидаги ёш олим ва талабаларнинг ҳудудий (Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти учун) илмий-амалий конференцияси. – Тошкент, 2016. – Б. 212-216.; Shu muallif. Тарихий ҳудудларни қайта қуришни такомиллаштириш йўллари // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. – Самарқанд, 2018. 1-сон. – Б. 13-15.; Маноев С. Ўзбекистон жамоат бинолари меъморчилигида ансамбль ва комплексларнинг шаклланиши.: Архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017.; Қидирбаев Б.Ю. Формирование и пути развития монументально-декоративного искусства в современной архитектуре Каракалпакстана.: Автореф. дисс. канд. архит. наук... – Тошкент, 2019.

shaharsozlik an'alarining vujudga kelishi, rivojlanishi va ushbu jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilingan⁸.

Davriy matbuot nashrlarida ham qator maqolalar e'lon qilinib borildi. Jumladan, K.Akilova, A.S.O'ralov, M.Qambarov, E.M.Muxamadiyev, Sh.X.Tugizov, M.Ziyayev, M.Ahmedov, Q.T.Usmonov, N.A.Burxonova, O.Haitov, M.Isakov, A.Yadgarovlarning⁹ maqolalarida me'morchilik va shaharsozlik an'alari haqida ma'lumot beriladi.

O'zbekiston hududida joylagan tarixiy yorgoliklar, ularning tarixi, mustaqillik yillarida ularda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari to'g'risida bir qator nashrlar chop etildi¹⁰. Shuningdek, tarixiy yodgorliklar muhofazasi bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari ham amalga oshirildi¹¹.

⁸ Йўлдошев И.Т. Фарғона водийсида шаҳарсозлик маданиятининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи.: Тарих фанлари номз. дисс... – Тошкент, 2011. – 168 б.; Эшов Б. Ж. Ўрта Осиёда илк шаҳар маданиятининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи.: Тарих фанлари докт. дисс... – Тошкент, 2008. – 292 б.; Хасанов А.М. XVI-XIX асрларда шаҳарсозлик ва меъморчилик (Қашқадарё воҳаси мисолида): Тарих фанлари номз. дисс... – Қарши, 2008. – 155 б.; Хасанов А.М. Жанубий Ўзбекистонда шаҳарлар шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (V-XIV асрлар биринчи ярми мисолида): Тарих фанлари докт. (DSc) дисс... – Қарши, 2021. – 251 б.

⁹ Акилова К. Марказий Осиёнинг замонавий ижтимоий-маданий тараққиёти билан боғлиқ тарихий-маданий меросни таъмирлаш муаммолари // Санъат журнали, 2005. – 47 б.; Уралов А.С. Самарқанд шаҳрининг мустақиллик йилларидаги архитектураси // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши 2007 йил 3-сон; Қамбаров М. Мустақиллик йилларида Бухоро вилоятида шаҳарсозлик соҳасида амалга оширилган ишлар // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши, 2011-йил 4–5-сонлар. 25-б.; Мухамдиев Э.М., Тугизов Ш.Х. Ўзбекистонда ландшафт дизайни тараққиётининг долзарб масалалари // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари, 2015-йил 2-сон. – Б. 7–8.; Зияев М. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида қурилиш соҳасининг тикланиш ва ривожланиш босқичлари // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари, 2016-йил 1-сон. – Б. 101–103.; Аҳмедов М. Мустақил Ўзбекистон Республикаси меъморчилиги // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари, 2016-йил 4-сон. 3 – 6 б.; Усмонов Қ.Т., Бурхонова Н.А. Жиззах шаҳрининг архитектуравий-режавий ташкил этилиши таҳлили (ишлаб чиқилган бош режалар асосида) // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари, 2017-йил 2-сон. – Б. 19–22.; Haitov O. Mustaqil O'zbekiston arxitekturasi va milliy me'morchiligimiz an'alarining mushtarakligi // Me'morchilik va qurilish muammolari, 2018-yil 1-son. – B. 24–27.; Isakov M., Yadgarov A. Iqtisodiy islohotlar natijasida aholini arzon uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2018-yil 3-son. – B. 6–7.

¹⁰ Зияев А.А. Комплекс Хазрати Имам в Ташкенте. Историко-архитектурный очерк. – Тошкент, 2008.; Насриддинов Қ., Хўжайров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент, 2011. – 19 б.; Турсунов С.Н. ва бошқ. Сурхондарё воҳасида моддий маданият тарихи. – Тошкент: Мухаррир, 2013. – 145 б.; Аҳмедов М.К. Пути развития средневековых архитектурных ансамблей Узбекистана. – Ташкент: Фан ва технология, 2014. – С. 37.; Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. (тарихий-маърифий рисола). Тўлдирилган, қайта ишланган иккинчи нашр. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 66 б.; Мухаммадкаримов А., Обидов А., Исқандаров З. Тошкентнинг табаррук зиёратгоҳлари. – Тошкент: "Наврўз" нашриёти, 2016; Обидов А. Хўжа Аҳмад Яссавий ва Сузук ота. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018; Мухаммедов Н. Ҳастимом – Абу Бакр Қафқол Шоший тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 3–4; Назаров Ў. Абу Исо ат-Термизий мақбараси // "Архитектура, қурилиш ва дизайн" журнали, 2019 йил 3-сон. – Б. 60–62.; Нарзуллаев Ю., Бобожонов Ш. Баҳоуддин Нақшбанд тарихий-меъморий мажмуаси. – Тошкент, 2019. – Б. 50–64.; Meyliyeva Ch. O'zbekistonda yigirmadan ortiq tarixiy shakllangan shaharlar // Me'morchilik va qurilish muammolari, 2020 yil 4-son. – B. 99–101.; Matchonov B. Me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash-tiklash, saqlash va ulardan foydalanish. muammolar va takliflar // "Arxitektura, qurilish va dizayn" jurnali, 2021-yil 1-son. – B. 83–85.; Mirdjalolov D. Qadimiy Toshkent va tarixiy darvozalari // "Arxitektura, qurilish va dizayn" jurnali, 2021-yil 3-son. – B. 58–59; Beknazarova M. Toshkent Baroqxon madrasasining memoriy jihatlari, ta'mirlash tarixi va uslublari // Me'morchilik va qurilish muammolari, 2022-yil 3-son. – B. 43–47.

¹¹ Абриев Р. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш

Ikkinchi guruhga, xorijiy mualliflarning tadqiqotlari keritilgan bo'lib, bu masala xorij mualliflari tomonidan kam o'rganilgan masalalaridan biri hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, A.A.Afanasyev, N.N.Danilov, V.D.Kopilov, C.Waldheim¹² kabi mualliflarning ishlarini kiritish mumkin.

Xullas, O'zbekiston tarixi tarixshunosligida mustaqillik yillari me'morchiligi va shaharsozligi sohasi tarixi masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida dissertatsiya shaklida hozirga qadar o'rganilmagan. Arxitektura sohasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda bu yo'nalish bo'yicha faqat u yoki bu jihatlariga to'xtalib o'tilgan, xolos.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanish tarixi (1991–2021 yy.) bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxitektura va shaharsozlik sohasidagi davlat siyosatini ochib berish;

O'zbekistonda arxitektura va qurilish sohasida kadrlar tayyorlash masalasini tahlil etish;

O'zbekiston shaharlari tarixiy me'moriy obidalarni qayta tiklash va ta'mirlash tadbirlari hamda uning natijalarini ko'rsatib berish;

ommaviy jamoat inshootlari qurilishida innovatsiya jarayonlarini yoritib berish;

O'zbekistonda landshaft me'morchiligidagi o'zgarishlarni tavsif etish;

shaharsozlik rejalari ishlab chiqilishi va turar-joylar qurilishini ko'rsatib o'tish;

qishloq joylarida zamonaviy turar-joylar qurilishidagi transformatsiya jarayonlarini yoritib berish;

dissertatsiya mavzusi yuzasidan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1991–2021-yillarda O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanish holati, sohada amalga oshirilgan islohotlar hamda o'zgarishlar olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanishi huquqiy asosi, islohotlar yo'nalishi, amalga

ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018. – 66 б.; Rasulov M. O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo'lgan munosabatning transformatsiyasi (1980–2019 yy.): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.; Abduraimov Sh. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklashning asosiy tamoyillari (Samarqand shahri misolida) Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.; Savriyev J. Navoiy viloyati tarixiy yodgorliklari ta'mirlanishining asosiy yo'nalishlari (1991–2020-yillar): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajacini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Buxoro, 2022. – 22 b.

¹² Афанасев А.А., Данилов Н.Н., Копилов В.Д. и др. Технология строительных процессов. – Москва: Высшая школа, 2000; Waldheim C. Landscape as urbanism a general theory. AVA Publishing USA, 2010.

oshirilgan istiqbolli loyihalar, sohada kadrlar tayyorlash masalasi, tarixiy me'moriy obidalarning muhofazasi, jamoat binolari va shaharsozlik loyihalari masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada muammoga tarixiylik va haqqoniylik tamoyillari asosida yondashilib, O'zbekiston tarixining yangi metodologik konseptual tamoyillariga tayangan holda tipologik, muammoli-xronologik, tarixiylik, tarixiy davrlashtirish, statistik kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda mustaqillik yillarida shaharsozlik va me'morchilik sohasi tubdan o'zgarib, yangi an'analar bilan boyib borganligi, sohani rivojlantirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy asoslar ishlab chiqilganligi, shu bilan bir qatorda ayrim hollarda "Turar joy kodeksi", "Shaharsozlik kodeksi" kabi yangi qabul qilingan muhim hujjatlar talablari buzilganligi, Qarshi, Samarqand, Buxoro shaharlarining bosh loyihalari ishlab chiqilishi, shunindek, sohada kadrlar tayyorlashda Toshkent arxitektura qurilish instituti va Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutlarining o'zni ilmiy jihatdan tahlil qilingan;

Mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy merosga munosabatning o'zgarishi, tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash uchun qurilish materiallarini tayyorlashga moslashtirilgan Samarqand ustaxonasi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 20 barobar, Shahrisabz ustaxonasida bajarilgan ish hajmi salkam 23 barobarga oshganligi, ushbu ishlarni amalga oshirishda hukumat mablag'lari bilan bir qatorda xorijiy grantlarning jalb etilganligi, shu bilan bir qatorda tarixiy obyektlarni ta'mirlashda ularning tarixiylikiga ham jiddiy zarar yetkazilganligi holatlari aniqlandi;

poytaxt Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida qurilgan davlat boshqaruvi obyektlari, mehmonxonalar, savdo markazlari qurilishidagi o'ziga xosliklar, ularda milliy an'analarning aks ettirilishi, qurilish ishlarida mahalliy arxitektorlar bilan bir qatorda xorijiy mutaxassislarining ishtiroki, respublika shaharlarida jahon andozalaridagi yangi mehmonxonalar faoliyati yo'lga qo'yilishiga oid fikrlar ilmiy jihatdan dalillandi;

istiqlol yillarida landshaft me'morchiligidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy ahamiyati, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i va boshqa yashil maydonlarning bunyod etilishi, viloyat va tuman markazlarida yangi istirohat bog'larining tashkil etilishi, shuningdek, ayrim hududlar qurilish ishlari tufayli bunday bog'larga xavf solinishi, ularning hududida tijorat va boshqa maqsadlarda turli xil noqonuniy qurilishlar amalga oshirilganligi, shuningdek, qishloq joylarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari orqali amalga oshirilgan qurilish ishlari natijalari yoritib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanishida avvalo qonunchilikda qurilish va ekologiya ta'siriga oid masalalarni qayta ko'rib chiqilishi, sohada kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari va o'rta maxsus bilim yurtlarida talaba va o'quvchilar

amaliyotini bevosita qurilish tashkilotlarida olib borish masalasini tashkil etish, tarixiy yodgorliklar muhofazasini yanada kuchaytirish, himoya qilish sohasi tarixini maxsus tadqiq etish, o'tmishdan saboqlar chiqarish bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Me'morchilik va shaharsozlik sohasi tarixiga oid arxiv hujjatlari, rasmiy hisobotlar va davriy matbuot materiallarini o'rganish va taqqosiy tahlil qilish asosida O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanishi tarixini o'rganishning nazariy-uslubiy jihatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'yilgan vazifalar 1991–2021-yillarda O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanish tarixiga doir arxiv hujjatlari, jumladan, respublika Milliy arxiv fondlaridagi hujjatlar, davriy matbuot materiallari asosida yozilgani, tadqiqot natijalari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati shundaki, O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlarni boyitishga hamda o'rganishga doir nazariy xulosalar hamda uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikada me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanish tarixi, amalga oshirilgan islohotlar, muammolar tarixiy nuqtai nazardan xolisona tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalardan soha tarixiga doir tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash hamda me'morchilik va shaharsozlik sohasiga oid davlat dasturlarini ishlab chiqishda bevosita qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda me'morchilik va zamonaviy shaharsozlikning rivojlanish tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O'zbekistonda mustaqillik yillarida shaharsozlik va me'morchilik sohasi tubdan o'zgarib, yangi an'analar bilan boyib borganligi, sohani rivojlantirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy asoslar ishlab chiqilganligi, shu bilan bir qatorda ayrim hollarda "Turar joy kodeksi", "Shaharsozlik kodeksi" kabi yangi qabul qilingan muhim hujjatlar talablari buzilganligi, Qarshi, Samarqand, Buxoro shaharlarining bosh loyihalari ishlab chiqilishi, shuningdek, sohada kadrlar tayyorlashda Toshkent arxitektura qurilish instituti va Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutlarining o'rniga oid ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqqimot" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 8-sentabrdagi 06-28-1337-son ma'lumotnomasi). Bu esa yoshlar ongida O'zbekiston hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash masalalariga oid davlat siyosati mohiyatini o'zgarib borishini ochib berishga xizmat qilgan;

Mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy merosga munosabatning o'zgarishi, tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash uchun qurilish materiallarini tayyorlashga moslashtirilgan Samarqand ustaxonasi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 20 barobar, Shahrisabz ustaxonasida bajarilgan ish hajmi salkam 23 barobarga oshganligi, ushbu ishlarni amalga oshirishda hukumat mablag'lari bilan bir qatorda xorijiy grantlarning jalb etilganligi, shu bilan bir qatorda tarixiy obyektlarni ta'mirlashga ularning tarixiylikiga ham jiddiy zarar yetkazilganligiga oid ma'lumotlardan Qarshqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi faoliyatida foydalanilgan (Qarshqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 2023-yil 21-avgustdagi 02-05/2893-sonli ma'lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalar asosida O'zbekistondagi moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish hamda yodgorliklar yangi ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

poytaxt Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida qurilgan davlat boshqaruvi obyektlari, mehmonxonalar, savdo markazlari qurilishidagi o'ziga xosliklar, ularda milliy an'analarning aks ettirilishi, qurilish ishlarida mahalliy arxitektorlar bilan bir qatorda xorijiy mutaxassislarning ishtiroki, respublika shaharlarida jahon andozalaridagi yangi mehmonxonalar faoliyati yo'lga qo'yilishiga oid ilmiy xulosalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 7 avgustdagi 307-son ma'lumotnomasi). Bu esa O'zbekistonda me'morchilik va milliy shaharsozlik sohasida amalga oshirilgan tadbirlarining qanchalik muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

istiqlol yillarida landshaft me'morchiligidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy ahamiyati, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i va boshqa yashil maydonlarning bunyod etilishi, viloyat va tuman markazlarida yangi istirohat bog'larining tashkil etilishi, shuningdek, ayrim hududlarda qurilish ishlari tufayli bunday bog'larga xavf solinishi, ularning hududida tijorat va boshqa maqsadlarda turli xil noqonuniy qurilishlar amalga oshirilganligi, shuningdek, qishloq joylarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari orqali amalga oshirilgan qurilish ishlari natijalariga oid ilmiy xulosalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 7-avgustdagi 307-son ma'lumotnomasi). Bu esa O'zbekistonda me'morchilik va milliy shaharsozlik sohasida amalga oshirilgan tadbirlarining qanchalik muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyisi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari jami 12 ta nashr qilingan ishlarda, jumladan, OAK 12

ro'yxatidan o'rin olgan respublika, shuningdek, xorij jurnallarida chop etilgan 5 ta maqola hamda 7 ta ilmiy to'plam va konferensiya materiallarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning tadqiqot qismi umumiy 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, masalaning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilinadi. Dissertatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, uning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Mustaqillik yillarida O'zbekistonda me'morchilik va shaharsozlik bo'yicha davlat siyosati hamda kadrlar tayyorlash masalalari”** deb nomlangan birinchi bobining *birinchi paragrafida* mustaqillik sharoitida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi davlat siyosati hamda kadrlar tayyorlash masalalari va uning tarixiy ahamiyati asoslab beriladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida shaharsozlik va me'morchilik sohasi tubdan o'zgarib, yangi an'analar bilan boyib bordi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba 1995-yili “Arxitektura va shaharsozlik” bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Hujjatga muvofiq hududimizga xos bo'lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy davlat “Qurilish me'yorlari va qoidalari” (QMQ) ishlab chiqildi¹³. Shu yili qurilish sohasiga kapital qo'yilmalar ko'rinishidagi xorijiy investitsiyalar miqdori 12,4 mlrd. so'm bo'lib, bu respublikadagi kapital qo'yilmalarning umumiy hajmining 13,9% ni tashkil etdi¹⁴.

Zamonaviy me'morchilik va shaharsozlikning huquqiy asoslarini shakllantirish maqsadida Davlat Qurilish ko'mitasi negizida O'zbekiston Davlat arxitektura va qurilish ko'mitasi tashkil qilinishi bu boradagi muhim qadam bo'ldi. “Turar joy kodeksi”, “Shaharsozlik kodeksi” kabi yangi qabul qilingan muhim hujjatlar asosida arxitektura va qurilishni rivojlantirishga qaratilgan qator farmoyish va boshqa me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Shular asosida loyihasisiz qurilish taqiqlab qo'yildi¹⁵.

1996–1997-yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

¹³ Miralimov M.M. Bino va inshootlar arxitekturasi (Fuqaro binolari arxitekturasi). – Toshkent, 2020. – B. 3–4.

¹⁴ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 2-varaq.

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 йил, 1–2-сон, 21-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун Ҳужжатлари тўплами, 2004 йил, 25-сон, 287-модда.

Mahkamasining tashabbusi bilan “O‘zshaharsozlik LITI” mutaxassislari Qarshi, Samarqand, Buxoro shaharlarining me‘morchilik va shaharsozlik bosh boshqarmalari me‘morlari bilan birgalikda qator viloyatlar markaz shaharlarining loyihalari ishlab chiqildi¹⁶.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yili Shaharsozlik kodeksi tasdiqlangan¹⁷. Unga ko‘ra shaharsozlik faoliyati obyektlari va subyektlari, davlat organlarining shaharsozlik faoliyati sohasidagi vakolatlari, shaharsozlik hujjatlari, davlat shaharsozlik kadastri hamda O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishi va aholi punktlari va shahar atrofi zonalari hududlaridan foydalanish tartibi belgilab berildi¹⁸. Shaharsozlik kodeksiga muvofiq 2005–2009-yillarda 31 ta shahar aholi hududlarining bosh rejalari ijrosi ta‘minlandi¹⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-sentabrdagi “2016–2020 yillarda qurilish industriyasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2615-son qarori, 2017-yil 24-apreldagi PQ-2922-son “2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari mamlakatda qurilish sanoati va aholini uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shaharsozlik kodeksi bugungi kun talablariga javob bermasligi, uni xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish zarurligi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan takror-takror ta‘kidlangan. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-533-sonli qonunining 5-moddasiga asosan Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi²⁰.

Birinchi bobning *ikkinchi paragrafida* O‘zbekistonda arxitektura va qurilish sohasida kadrlar tayyorlash ishi tarixi masalasi yoritib beriladi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab qurilish va arxitektura sohasida oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlari tashkil etildi. Toshkent arxitektura-qurilish instituti (TAQI) O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1991-yil 6-maydagi PQ-203-sonli qaroriga binoan, Toshkent politexnika institutining arxitektura, sanoat va fuqaro qurilishi hamda muhandis qurilishi fakultetlari negizida tashkil etildi. 1996-yilda esa institut qoshida akademik litsey faoliyati ham tashkil etilib, o‘rta maxsus kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi²¹.

¹⁶ O‘z MA, M-35-fond, 1-ro‘yxat, 62-ish, 23-varaq.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Шаҳарсозлик кодекси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002-й., 4-5-сон.

¹⁸ 2002 йил 4 апрелида “Ўзбекистон Республикасининг шаҳарсозлик кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

¹⁹ O‘z MA, M-35-fond, 1-ro‘yxat, 92-ish, 24-varaq.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-533-sonli qonuni. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2019 y., 03/19/533/2885-son).

²¹ Тошкент архитектура-қурилиш институти. Маълумотнома. – Тошкент, 2001. – Б. 3–9.

Institut faoliyatining ilk yillaridanoq xalqaro OTMLar bilan hamkorlik aloqalari olib borildi. Jumladan, Germaniyaning "BAUHAUS" universiteti bilan 1993-yilda aloqalar o'rnatildi²².

1991–2000-yillarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining 30 dan ortiq mamlakatidan kelgan 200 nafardan ortiq xorijiy talaba TAQI'da o'qidi, 5 nafar aspirant nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqladi. 2001-yilning 4–5-may kunlari institut tashkil etilganligining 10 yilligi keng nishonlandi²³.

Institutda iqtidorli talabalar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2000-yil 10-mayda "Magistratura va iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi" tashkil etildi. 2003–2004-o'quv yilida TAQI magistraturasida 19 ta mutaxassislik bo'yicha magistrlar tayyorlandi. 2000–2004-yillarda TAQI magistraturasida 17 ta mutaxassislik bo'yicha 318 nafar magistr magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bitiruvchi magistrlardan 26 nafari TAQI kafedralarida assistent lavozimida mehnat qilish bilan birga aspiranturada ilmiy faoliyatlarini ham davom ettirishdi²⁴.

Toshkent arxitektura qurilish instituti (TAQI) va Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti (SamDAQI)da 2002-yildan boshlab "Shahar rejalashtiruvchisi" va "Landshaft me'mori" ixtisosliklari bo'yicha magistr mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi²⁵.

Toshkent arxitektura-qurilish institutida 2001-yilda 24 kafedrada 26 nafar fan doktori-professor, 95 nafar fan nomzodi – dotsent, 87 nafar katta o'qituvchi, assistentlar, doktorant-aspirantlar va ilmiy hodimlar mehnat qilishdi. Barcha professor-o'qituvchilarning 52,3 foizi ilmiy daraja va ilmiy unvonli bo'ldi²⁶. Shuningdek, TAQI qoshida Qurilish sohasidagi menejerlarni qayta tayyorlash Markazi tashkil topdi²⁷.

Toshkent arxitektura-qurilish institutida 2008–2009-o'quv yilida 2992 nafar talabaga 248 nafar professor-o'qituvchi, jumladan, 19 nafar fan doktori va professorlar, 99 nafar fan nomzodi va dotsentlar ta'lim berdi²⁸. 2011–2012-o'quv yilida institutda 4 fakultet, 24 ta kafedralarda 327 nafar asosiy shtatdagi, jumladan, 24 nafar fan doktori va professorlar, 108 nafar fan nomzodlari va dotsentlar, 195 nafar katta o'qituvchi, assistent-o'qituvchilar jami 3525 nafar talaba, jumladan, 3248 nafar bakalavriat hamda 277 nafar magistrarga ta'lim-tarbiya berdi²⁹.

2020–2021-o'quv yilida xorijiy mamlakatlarning 78 ta nufuzli OTMLari bilan ilmiy hamkorlik aloqalarini o'rnatgan, jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Avstriya, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq

²² Toshkent arxitektura-qurilish instituti joriy arxivi ma'lumoti.

²³ Toshkent arxitektura-qurilish institutining joriy arxivi, 2000–2001-o'quv yilida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot papkasi ma'lumotlari.

²⁴ Тошкент архитектура-қурилиш институти. Маълумотнома. – Тошкент, 2004. – Б. 16.

²⁵ Проблемы архитектуры и строительства, 2016. №2. – С. 46–49.

²⁶ Toshkent arxitektura-qurilish institutining joriy arxivi, 2000–2001-o'quv yilida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot papkasi ma'lumotlari.

²⁷ Тошкент архитектура-қурилиш институти. Маълумотнома. – Тошкент, 2012. – Б. 7.

²⁸ Миллий Энциклопедия. – Тошкент: ЎзМЭ ДИН, 2009. – В. 80.

²⁹ Toshkent arxitektura-qurilish institutining joriy arxivi, 2011–2012-o'quv yilida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot papkasi ma'lumotlari.

Respublikasi, Indoneziya, Latviya, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorussiya, Yaponiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston va Qozog'iston kabi davlatlarning qator nufuzli ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlandi³⁰.

2020–2021-o'quv yilida Toshkent arxitektura qurilish institutida 343 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritib, ulardan 23 nafari fan doktorlari va professorlar, 102 ga yaqini fan nomzodlari va dotsentlar talabalarga ta'lim-tarbiya berdi. Institut professor-o'qituvchilarining 36% ilmiy daraja va ilmiy unvonlarga ega³¹.

Xullas, davlatimiz mustaqilligining ilk yillaridanoq, arxitektura va qurilish sohasi, tarixiy va me'morchilik obidalarini muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlari yaratildi. Me'morchilik va qurilish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Buning yechimini yaratish uchun Toshkent va Samarqand davlat arxitektura – qurilish institutlari tashkil etildi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston tarixiy shaharlari me'moriy yodgorliklarini qayta tiklash va jamoat inshootlari me'moriy tuzilishida innovatsiya jarayonlari”** deb nomlangan ikkinchi bobning *birinchi paragrafida* O'zbekiston shaharlarida tarixiy me'moriy obidalarni qayta tiklash va ta'mirlash tadbirlari hamda ularning natijalari tahlil etiladi.

Bugungi kunda dunyoda tarixiy shaharlar va ularda joylashgan me'moriy yodgorliklarni saqlash va qayta qurish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada YUNESKO tashabbusi bilan 413 ta qadimiy shaharlar hududida joylashgan Butunjahon moddiy madaniy meros yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan 1007 ta obyektlardan 779 tasi me'moriy yodgorliklar ekanligi diqqatga sazovordir³². O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 1996-yili BMTning YUNESKO qo'mitasining “Butunjahon madaniy va tabiiy yodgorliklarni muhofazasi” konvensiyasiga qo'shildi³³.

1991–1996-yillar davomida tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash uchun qurilish materiallarini tayyorlashga moslashtirilgan Samarqand ustaxonasi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 20 barobar, Shahrisabz ustaxonasida bajarilgan ish hajmi salkam 23 barobarga oshdi. 1991–2000-yillarda respublika bo'yicha 69 ta me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi³⁴.

Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan yodgorliklar o'rnatildi. Toshkentga 1993-yilda o'rnatilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur haykali (haykaltarosh I.Jabborov, arxitektorlar F.Ashrafiy, B.Usmonov) otliq suvoriy ko'rinishda ishlangan – bu atrof-muhitga nisbatan ko'lamli san'at asaridir³⁵. Samarqandda Amir Temur

³⁰ Toshkent arxitektura-qurilish institutining joriy arxivi, 2020–2021-o'quv yilida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot papkasi ma'lumotlari, 2022.

³¹ <https://taqi.uz/institut-haqida/1160-toshkent-arxitektura-qurilish-instituti-haqida.html>.

³² Список всемирного наследие ЮНЕСКО // <http://whc.unesco.org/en.list>.

³³ Ўзбекистон Республикаси “Маданий мерос ёдгорликларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш” қонуни ҳақида. Маданият ёдгорликлари илмий ишлаб чиқариш бош бошқармаси ҳужжатларидан. – Тошкент, 2001-йил 9-март.

³⁴ O'z MA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 369-ish, 81-varaq.

³⁵ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 31-varaq.

haykali va maydoni 1996–1997-yillarda shaharning markaziy qismida bunyod etilgan (haykaltarosh I.Jabborov, arxitektor V.Akopjanyan)³⁶. Shuningdek, Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash bilan bog'liq obyektlar bo'yicha 416 million so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, dastur bo'yicha 158,6 million so'm o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan³⁷. Yubiley munosabati bilan katta ta'mir va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Go'ri Amir va Ruhobod yodgorliklari ta'mirdan chiqarildi³⁸. Shahrisabz shahrida Amir Temur va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan bog'liq me'moriy yodgorliklar ta'miri bo'yicha hamda Jahongir maqbarasi qoldiqlarini o'rganish, uni muhofaza etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi³⁹. O'zbekistonda Mirzo Ulug'bek yubileyining o'tkazilishi munosabati bilan yubiley obyektlarini ta'mirlash maqsadida shaharlardagi yodgorliklarni o'rganishga doir ekspeditsiya uyushtirildi va moddiy mablag' ajratildi⁴⁰.

Mamlakatimizda Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik yubileylariga tayyorgarlik munosabati bilan 1997-yilning to'qqiz oyi mobaynida tarix va madaniyat yodgorliklarida davlat budjeti hisobidan 259,1 mln so'mlik ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu mablag'ning 74 mln so'mi Xiva, 185,1 mln so'mi Buxoro shahridagi obyektlar uchun sarf qilindi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 1999-yil noyabr oyida Parijda o'tgan 30-sessiyasida Termiz shahrining 2500 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqida qaror qabul qilindi⁴¹. Jumladan, Nurullaboy saroyi, Muso-To'ra madrasasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Islomxo'ja madrasasi, Tosh darboza, shuningdek, 15 ta obidani restavratsiya qilish uchun viloyat hokimligi tomonidan yana 40 million so'm mablag' ajratildi⁴². 1996-yilning 4 oyida restavratsiya qilinishi rejalashtirilgan 20 ta obyektga 8 mln so'm mablag' o'zlashtirildi⁴³. Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan katta bunyodkorlik ishlari qilindi⁴⁴. Qadimgi yodgorliklar: Burhoniddin Marg'inoniyning Chillaxona majmuyi, Uvaysiy qabri va uy-muzeyi, Ulug' Muzor va shaharning boshqa madaniy meroslari qayta tiklandi⁴⁵. Qarshi shahridagi XVI asrda bunyod etilgan tarixiy ko'prikn tuzatib-ta'mirlash, shahar hududidagi Eski hammom va Qilichboy madrasalari 1995-yil oxirigacha to'liq qaytadan ta'mirlanishi belgilandi⁴⁶. Shahardagi Ko'kgumbaz masjidida 1 million 82 ming so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi⁴⁷.

³⁶ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 33–34-varaqlar.

³⁷ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 39-ish, 28-varaq.

³⁸ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 28-ish, 11-varaq.

³⁹ O'z MA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 18-varaq.

⁴⁰ O'z MA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 61-ish, 6-varaq.

⁴¹ Савриев Ж. Навоий вилояти тарихий ёдгорликлари таъмирланишининг асосий йўналишлари (1991–2020-йиллар).: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2022. – Б. 22.

⁴² O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 84-varaq.

⁴³ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 108-varaq.

⁴⁴ "Халқ сўзи", 2000 йил 17-октябрь.

⁴⁵ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 65-ish, 22–23-varaqlar.

⁴⁶ QVDA, M-687-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 179–180-varaqlar.

⁴⁷ QVDA, M-687-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 185–186-varaqlar.

Mustaqillik yillarida yirik masshtabli shaharsozlik tadbirlari bilan bog'liq holda tarixiy shaharlarni, ularning me'moriy merosini ta'mirlash va qayta tiklash yangicha tus oldi. Aynan 1994–2008-yillarda shahar markaz-qo'riqxonalari (Buxoro, Samarqand qo'riqxonasi 1998-yil, Xiva muzey qo'riqxonasi – 1980-yil, Shahrisabz – 1996-yil, Qarshi – 2006-yil, Qo'qon – 2005-yil va boshqalar) paydo bo'ldi⁴⁸.

So'nggi yillarda madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va restavratsiya qilish ishlariga ajratilayotgan mablag'lar sezilarli darajada oshirildi. Respublika byudjeti hisobidan 2016-yil 67 ta madaniy meros obyektlarda 22831,062 mln so'mlik, 2017-yil 45 ta madaniy meros obyektlarida 28848,1 mln so'mlik, 2018-yil 72 ta madaniy meros obyektlarida 47569,5 mln so'mlik ta'mirlash tiklash ishlari bajarildi. 2019-yilda esa bu ishlarga 67 mlrd so'm mablag' ajratildi⁴⁹.

2021-yil Davlat dasturiga muvofiq, Toshkent hokimligiga 12 ta qadimiy shahar darvozasini tiklash va ularni turizm yo'nalishiga kiritish topshirildi⁵⁰.

Ikkinchi bobning *ikkinchi paragrafi* Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ommaviy jamoat binolari qurilishida innovatsiya jarayonlari masalasi ochib beriladi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi va milliy taraqqiyot yo'liga dadil qadamlar bilan kirib borishi shaharsozlikda xalq me'morchilik merosidan o'rnak olib, mahalliy sharoitlarga moslik, ko'rkam va shinamlik, jahon andozalaridan qolishmaslik kabi qator jihatlar e'tibor markazida bo'lishini taqozo etdi⁵¹.

1995-yilda xorij sarmoyasi ishtirokida nemis firmalari bilan hamkorlikda "Paxtakor" stadioni, Toshkent shahridagi aeroportni rekonstruksiya qilish, Xorazmda "Mercedes-Benz" rusumli avtobuslarni yig'ish, tamaki ishlab chiqarish bo'yicha ingliz firmalari bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirildi. Shuningdek, Yaponiya Tashqi iqtisodiy hamkorlik jamg'armasi Buxoro, Samarqand va Urganch shaharlaridagi uchta aeroportni modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirdi⁵².

Oliy Majlis binosi respublikamizdagi eng muhim jamoat binolaridan biri bo'lib, 1996–1997-yillarda "Toshkentboshreja" instituti tomonidan loyihalashtirildi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatni boshqarishning demokratik tamoyillarini mujassam etgan⁵³. Binoning eng yuqori qismida diametri 34,46 m va balandligi 11,5 m bo'lgan qobirg'ador qubba o'rnashgan, u turli balandlikdagi 20 ta panjarasimon ravoqlar bilan

⁴⁸ Meyliyeva Ch. O'zbekistonda yigirmadan ortiq tarixiy shakllangan shaharlar // Me'morchilik va qurilish muammolari, 2020-yil 4-son. – B. 99–101.

⁴⁹ Расулов М. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларнинг аҳволи ҳамда уларга бўлган муносабатнинг трансформацияси (1980–2019 йй.): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 17. (56 б.).

⁵⁰ Mirdjalolov D. Qadimiy Toshkent va tarixiy darvozalari // "Arxitektura, qurilish va dizayn" jurnali, 2021-yil 3-son. – B. 58–59.

⁵¹ Mamatmusayev T.Sh. O'zbekiston tarixiy shaharlarining tipologik rivojlanishi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 4–5.

⁵² O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 2-varaq.

⁵³ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 18-varaq.

qurshalgan⁵⁴.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Mahkamasining 7 qavatli ma'muriy binosi loyihasi arxitektor J.Berdixanov, K.Molutov, B.Miraliyev shahar markaziy qismidagi nodir arxitektura inshootlari sirasiga kiritish mumkin. Har ikkala bino ham 2000–2002-yillardagi qayta tiklanishdan keyin zamonaviy qiyofa va o'ziga xos intererga ega bo'ldi. 2003-yilda Nukusdagi I.Saviskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyi arxitektorlar S.Sutyagin va I.Li loyihasi asosida qurilishida an'analarni o'zlashtirishga mutlaqo yangicha yondashilgan⁵⁵.

Zamonaviy shaharsozlikda jahon me'morchiligi maktabi tajribalaridan keng foydalanildi. Toshkentdagi "International", "Hyatt", "Markaziy", "Dedeman", "Sheraton" kabi mehmonxonalar, "MegaPlanet", "Samarqand Darvoza" kabi savdo majmualari, "Poytaxt", "Inkonel" kabi biznes markazlari, Milliy galereya, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston Markaziy banki kabi yangi inshootlar shular jumlasidandir⁵⁶.

"Istiqlol" san'at saroyi – Toshkent shahridagi madaniyat markazlaridan biri bo'lib, turli tadbirlar o'tkazish, konsertlar berishga mo'ljallangan. 2008-yilgacha "Xalqlar do'stligi saroyi" deb atalgan. Shu yil 8-apreldan "Istiqlol" san'at saroyi nomi bilan atala boshlandi. Maydoni – 12000 kv.m. Bino kiyofasi va bezaklarida milliy me'morlikka xos bo'lgan muqarnasga o'xshash shakllardan foydalanilgan, binoni bezashda mahalliy xomashyolar, Nurota va G'ozg'on marmarlari ishlatilgan⁵⁷.

2002-yili "Toshgiprogor" instituti me'mori V.Spivak loyihasi asosida O'zbekiston Davlat konservatoriyasi binosi Botir Zokirov ko'chasida, "Paxtakor" o'yingohining bog' hududi yonida bunyod etildi. Binoda o'quv-mashq va teatr joylashgan⁵⁸.

O'zbekiston Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni hamda 2002-yil 12-apreldagi Vazirlar Mahkamasining "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish haqida"gi Qaroriga muvofiq kutubxona "Milliy" maqomini oldi⁵⁹. 2011-yil noyabrda "Ma'rifat markazi" majmuasi bunyod etildi. Ushbu zamonaviy muhtasham majmuada Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi joylashgan⁶⁰.

Mustaqillik yillarida respublika shaharlarida jahon andozalaridagi

⁵⁴ Ўзбекистон санъати тарихи (1991–2001-йиллар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 12–24.

⁵⁵ Қодирова Ф.Т. Ўзбекистоннинг замонавий архитектураси (XX аср – XXI аср боши). – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 109 б.

⁵⁶ Ўзбекистон шаҳарларининг энг янги тарихи: ислохотлар ва модернизация жараёнлари. – Тошкент, 2016. – 37 б.

⁵⁷ Миллий Энциклопедия. – Тошкент: ЎзМЭ ДИН, 2009. – Б. 261–262.

⁵⁸ О'з МА, М-35-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 84-varaq.

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 7-сон, 50-модда; 2011 й., 45-46-сон, 475-модда.

⁶⁰ Ўзбекистон санъати тарихи (1991 – 2001 йиллар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 12–24.

yangi mehmonxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularning aksariyati avvalgi binolarda qayta tashkil etilgan bo'lsa, aksariyati zamonaviy me'morchilik uslubida yangidan qad ko'tardi. Hindistonning "Tata" korporatsiyasi O'zbekistonda uchta yirik mehmonxona barpo etdi. Bular sirasiga Toshkent markazida "Meridiyan", Samarqandda Amir Temurning sobiq qal'asi o'rnida "Afrosiyob" hamda tarixiy shahar yonidagi yangi markaz majmuasi sifatida 1996-yili M.Vohidov, V.Sipishev, R.Yanbulatov loyihasi asosida bunyod etilgan "Buxoro" mehmonxonalari shular jumlasidandir. Toshkent shahridagi "Dedeman" (360 o'rinli), "Le-Meridian" (sobiq "Toshkent", 185 ta xona), "Redisson" (111 xona), shuningdek, fransiyalik me'mor Vinsent Viyon va "Toshgiprogor" instituti arxitektori R.Valiyev loyihasi asosidagi "Sheraton" mehmonxonalari (250 xona), Samarqand shahridagi arxitektori M.Vohidov loyihasi asosida 1995-yilda qurilgan "Afrosiyob" (500 o'rinli), "Toshkentboshreja" loyihasi asosida 2004-yilda bunyod etilgan "Prezident-otel" mehmonxonalari, Buxoro shahridagi 1996-yilda qurilgan "Buxoro" mehmonxonasi (430 o'rinli), Urganch shahridagi "Inturist" va "Xorazm – Palas" (2001-yil) mehmonxonalari zamonaviy uslubda bunyod etilgan⁶¹.

Toshkent shahri markazida joylashgan "Minor" jome' masjidi 2014-yili qurilgan bo'lib, masjid bir paytning o'zida 3 mingdan ziyod namozxonni bag'riga sig'dira oladi. Masjidning bosh binosi – ikki qavatli xonaqoh, ikkita peshtoq, balandligi 38 metr bo'lgan ikkita minora va bir gumbazdan iborat⁶².

2022-yil mart oyida Samarqand shahrida Mirzo Ulugbekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" kitobining holdagi ko'rinishida bunyod etilgan xalqaro aeroport foydalanishga topshirildi. Ushbu aeroportda soatiga 26 ta samolyotni qabul qilish va ming nafar yo'lovchiga xizmat qilish imkoniyati yaratildi⁶³.

Xullas, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, ularni ta'mirlash-tiklash, konservatsiyalash ishlariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Me'morchilikda jamoat binolari qurilishiga alohida ahamiyat berildi. Chunki shaharlar ko'rkini bezashda jamoat binolari alohida o'rin egallaydi. Yirik jamoat binolaridan Oliy Majlis, Oqsaroy kabi nodir binolar aynan shu davrda bunyod etildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"O'zbekistonda landshaft me'morchiligi, shaharsozlik va zamonaviy turar-joy qurilishining yangi bosqichga ko'tarilish jarayonlari tarixi"** deb nomlanib, uning *birinchi paragrafida* O'zbekistonda landshaft me'morchiligidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy ahamiyati masalasi yoritib beriladi. Shahar va tuman markazlarida landshaft tizimini yangidan yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi⁶⁴.

⁶¹ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 102-ish, 21–23-varaqlar.

⁶² <http://www.gazeta.uz/2014/10/02/minor/>

⁶³ Samarqand viloyati hokimligi Matbuot xizmati ma'lumoti, 2022-yil aprel.

⁶⁴ Исамухамедова Д.У., Адилова Л.А. Шаҳарсозлик асослари ва ландшафт архитектураси: II қисм. Дарслик. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б. 160.

Mustaqillik maydonini tashkil etgan tik kompozitsiyali ko'p qavatli binolar, maydonni bir necha pog'onaga bo'lib turuvchi keng suv havzasi, ulkan favvoralar sharsharasi o'ziga xos tarzda ishlandi. Markaziy maydon maysazorlar, daraxtlar qatori, gulzorlar va favvoralar bilan to'ldirildi. Toshkent shahri ko'chalari, ayniqsa, shohko'chalar, jamoat binolari atroflari yanada kengaytirilib, yashil tusga, bog'lar fayziga keltirildi. Bularning hammasi "Paxtakor" stadioni mavzesidagi yashil massiv va xiyobonlar bilan birga Toshkent markazida o'ziga xos "yashil vohani vujudga keltirdi"⁶⁵.

O'zbekiston iqlim sharoitini hisobga olib, shaharsozlikda landshaft arxitekturasini qo'llash yo'nalishi yuzaga keldi⁶⁶. Toshkentdagi sobiq "G'alaba" istirohat parki chegarasiga tutashgan Anhor kanalining sohillari obod etilib, bu joy uchun "Toshkentlend" parki loyihasi ishlandi va amalga oshirildi⁶⁷.

Mustaqillik yillarida landshaft arxitekturasini bo'yicha ham, Samarqandda katta ishlar bajarildi. Shulardan biri, shahardagi eski markaziy istirohat va madaniyat bog'ining qayta qurilishi bo'ldi. Bog' hududi unga yot elementlar va obyektlardan tozalandi. Bog'da ochiq va yopiq yashil hududlar, sayr xiyobonlari shakllantirildi, bog' tiklandi. Shuningdek, yangi gulzorlar, daraxtzorlar, markazidagi maydonga Alisher Navoiy haykali xiyobonlar, raqs va konsert maydonlari, amfiteatr va suv havzalari, bolalar uchun attraksionlar, yangi darvozalar qurilib bog' obod, shinam hamda ko'rkam shaklga kirdi⁶⁸.

Mirzo Ulug'bek nomidagi "Markaziy bog'da 2018-yili qayta ta'mirlash ishlari olib borilgandan so'ng ochildi. Rekonstruksiya qilinganda oldingi bog'ning ruhiyati, tinch dam olish hududlari saqlanib qolindi. Bog' ikki erkin hududga bo'lingan bo'lib, birinchi hudud tinch dam olib sayr qilish, ikkinchi hudud ko'ngilochar hududdan iborat. Bog'da dam olish hududi, bolalar hududi, attraksionlar, kafelar mavjud⁶⁹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida Toshkent shahrining Olmazor tumanida "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hamda uning hududida "Shon-sharaf" davlat muzeyi bunyod etildi⁷⁰. 2020-yil 9-may kuni Toshkentda "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi ochildi. "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi 12 ta hududdan tashkil topgan bo'lib, har bir hudud o'zining tematikasi va ma'lum bir voqeani ochib beruvchi installatsiyalar, haykallar va relyeflardan iborat bo'ldi⁷¹.

⁶⁵ Адилова И.А. Ландшафт меъморчилиги. – Тошкент, 2002. – Б. 65.

⁶⁶ Аҳмедов М. Мустақил Ўзбекистон Республикаси меъморчилиги // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари, 2016-йил 4-сон. – Б. 3–6.

⁶⁷ Тошкент оқшоми, 2004-йил 15-январь.

⁶⁸ Ўралов А. Мустақиллик йилларида Самарқанд шаҳри архитектураси // "Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши", 2007-йил 3-сон.

⁶⁹ Talipov M. Toshkent shahrining istirohat bog'lari // Me'morchilik va qurilish muammolari, 2022-yil 2-son. – B. 82–86.

⁷⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021 y., 06/21/26/1111-son.

⁷¹ <http://mrdr.uz/2020/05/g'alaba-bog'i-va-shon-sharaf-muzeyi-v/>.

Toshkent shahrida 2017-yilda 20 ga yaqin madaniyat va istirohat bog'i ishlab turdi. So'nggi yillarda yangi bog'lar barpo etish bilan birga, mavjudlari to'liq qayta qurildi. Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog', Amir Temur xiyoboni, G'afur G'ulom, Mirzo Ulug'bek, Abdulla Qodiriy, Bobur nomidagi bog'lar so'lim dam olish maskanlariga aylandi⁷².

Uchinchi bobning *ikkinchi paragrafida* shaharsozlik rejalarining ishlab chiqilishi va turar-joylar qurilishi tarixi masalalari yoritib beriladi.

Zamonaviy sharoitda shahar aholisining o'sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda va bu barcha davlatlarda eng muhim ahamiyatga ega.

Turar-joy qurilishida yaxshi rejalashtirilgan xonadonli turar-joy uylarining loyihalari alohida o'rin egallaydi. Bu uylar arxitekturaviy yechimi xususiy buyurtmachilar talab va ehtiyojlariga javob beradi. Rejada bir-biri bilan tutashgan uch, yetti qavatli turar-joy uylaridan iborat bo'ldi⁷³. Taniqli me'morlar F.Tursunov, V.Akopjanyan, A.Mahkamov, N.Mahkamov va R.Mahkamov, R.Shokirov, M.Shaqayev, M.Vohidov va boshqalar turar-joy loyihalari ustida ish olib bordi. "To'raxon" me'moriy-loyiha ustaxonasi (V.Sushkov), "Siymo loyiha" (M.Yo'ldoshev, U.Muzaffarov, B.Muhammadjonov) va boshqa tashkilotlar xususiy buyurtmalar bo'yicha yakka tartibdagi turar-joylarni qurdi⁷⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12-mart kuni R-3806-sonli Toshkentning eski shahar qismini 2020-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish va obodonlashtirish bo'yicha farmoyishi qabul qilindi⁷⁵.

Mustaqillik yillarida "O'zshaharsozlik" instituti sakkiz viloyat markazi markaziy mintaqalarning loyihaviy maketlarini ishlab chiqdi. Ularda shaharlar markazlarining qulay muhitini yaratish maqsadida hududni mintaqalashtirish, ko'chalar tuzilishi, jamoat piyodalar yurish zonalari, asosiy majmualari, sport inshootlari, ko'rgazma, mehmonxona kabilarga katta ahamiyat berildi. Qarshi, Samarqand va Buxoro viloyat markazlari bo'yicha ishlar mahalliy loyihalashtirish tashkilotlari va "O'zshaharsozlik" instituti bilan hamkorlikda me'moriy loyihalar ishlab chiqildi⁷⁶.

1996-yil yanvar-aprel oylarida bir nechta xizmat safarlarida. Farg'ona shahridagi "O'zshaharsozlik LITI" OAJning o'nta loyihachisi bo'lgan "O'zshaharsozlik LITI" OAJ dizaynerlar jamoasi Farg'ona shahridagi Al-Farg'oniy ko'chasining hozirgi holatini o'rganish va obodonlashtirish eskizini kelishish maqsadida Farg'ona shahrida shaharning bosh rejasi ishlab chiqildi⁷⁷.

2005-yilda Samarqand shahrining 2020-yilgacha bo'lgan davri bosh rejasi O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan "Toshkentboshreja"

⁷² Маноев С. Ўзбекистон жамоат бинолари меъморчилигида ансамбль ва комплексларнинг шаклланиши.: Архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 118.

⁷³ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 16-varaq.

⁷⁴ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 62-ish, 140-varaq.

⁷⁵ Аҳмедов М., Назарова Д., Ҳасанов А. Ўзбекистон архитектураси ва заҳарсозлигини тараққиёт йўллари. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – Б. 32.

⁷⁶ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 65-ish, 19-varaq.

⁷⁷ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 30-varaq.

institutida bosh arxitektor V.Akopjanyan tomonidan ishlab chiqqan⁷⁸. Eski shaharni qayta tiklash bo'yicha talay ishlar qilindi. "Toshkent", "8 mart", "Buxoro", "Registon" kabi ko'chalar obodonlashtirildi, piyodalar yuradigan zonalarga, mahalliy aholi uchun ham, mehmonu sayyohlar uchun ham shinam joylarga aylantirildi. "Siyob" bozori va ko'plab savdo inshootlari qayta tiklandi. Markaziy madaniyat va istirohat bog'i Alisher Navoiy nomidagi bog' deb atala boshladi, turli attraksionlarni qayta tiklash hamda tashkil etish, daraxt va gullar o'tkazish bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirildi⁷⁹.

2017-yilda namunaviy uylar va ko'p qavatli uy-joylar barpo etilishi 2007-yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014-yilga nisbatan esa 2 barobar ko'p uy-joy qurilganligi, shuningdek, keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'p qavatli uy-joylarni qurish boshlanganligi, 2017-yilning o'zida 800 ming kv.m. dan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirilganligi hamda birgina Toshkent shahrining o'zida joriy yilda 420 ming kv.m. dan ko'p ko'p qavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirilib, bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 3 barobarga ko'paydi⁸⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-oktabrdagi qaroriga muvofiq, 2018–2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylar qurish dasturining yangilangan parametrlari tasdiqlangan edi. Unga ko'ra, kelgusi yillarda quriladigan uylar soni 1,5–2 barobar ko'paytirildi. Xususan, 2018-yil jami 15 ming 172 xonadonga ega bo'lgan 365 ta ko'p qavatli uy qurildi⁸¹.

Uchinchi bobning *uchinchi paragrafida* qishloq joylarida zamonaviy turar-joy qurilishidagi transformatsiya jarayonlarining ahamiyati ochib beriladi.

Qishloq aholi punktlarini shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash, loyihalarining ishlab chiqilishida hududlarning iqlimi, demografik, milliy shart-sharoitlarini va aholining maishiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi tipdagi turar-joy binolari qurilishi uchun namunaviy loyiha turlarini (tiplari) ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2009-yil 27-yanvarda loyiha-qidiruv instituti – "Qishloqqurilishloyiha" MCHJ tashkil etish to'g'risida PQ-1049-sonli qarori qabul qilindi⁸².

2010-yil davomida 65 ta qishloq fuqarolar yig'inlari hududlarini me'moriy rejalashtirishni tashkil etish, 4 ta 10 mingdan ziyod bo'lgan qishloq aholi punktlarini bosh reja loyihasini ishlab chiqish tadbirlari olib borildi. Buning uchun davlat byudjeti hisobidan 1 mlrd. 700 mln. so'm

⁷⁸ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 76-ish, 24–25-varaqlar.

⁷⁹ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 76-ish, 25–26-varaqlar.

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi, 2017-yil 22-dekabr.

⁸¹ "Xalq so'zi", 2019-yil 14-mart.

⁸² Халқ сўзи, 2009-йил 27-январь.

mablag' ajratildi⁸³.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktabrdagi "2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qaror ijrosi qishloq aholisining keng qatlami uchun zamonaviy va shinam uylardan foydalanish darajasini tubdan oshirishga, yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirishga xizmat qildi⁸⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-yanvardagi "2017–2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2728-sonli qarorida 2017-yilda yosh oilalarning, eskirgan uylarda yashovchilarning hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan toifalardagi fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq Toshkent shahrida va respublikaning boshqa shaharlarida maydoni 554,8 ming kvadrat metr bo'lgan 191 ta ko'p kvartirali uylar qurilishi va rekonstruksiya qilinishi amalga oshirildi⁸⁵.

Xullas, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, ularni ta'mirlash-tiklash, konservatsiyalash ishlariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Me'morchilikda jamoat binolari qurilishiga alohida ahamiyat berildi. Chunki shaharlar ko'rkini bezashda jamoat binolari alohida o'rin egallaydi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirish jarayonida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Mamlakatimiz istiqbolining ilk yillaridan boshlab milliy me'morchilik va qurilish sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'pgina amaliy ishlar olib borildi. Bunda asosiy e'tibor sohani rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratishga qaratildi. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar arxitektura va qurilish me'yorlarini belgilash bilan bir qatorda fuqarolarning o'zlari yashab kelayotgan turar-joylariga bo'lgan egalik huquqlarini mustahkamladi. O'zbekistonda yagona me'morchilik-shaharsozlik siyosatining amalga oshirilishini, vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shaharsozlik faoliyati sohasida ularga yuklangan vazifalar bajarilishini ta'minlash, aholi punktlarini

⁸³ O'z MA, M-35-fond, 1-ro'yxat, 105-ish, 12–13-varaqlar.

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017-yil 16-yanvar.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639-sonli qarori // "Xalq so'zi", 2016-yil 25-oktabr.

kompleks rivojlantirish yuzasidan qabul qilinayotgan loyiha yechimlari darajasi va sifatini oshirish imkoniyatini berdi.

2. Me'morchilik va qurilish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Buning yechimini yaratish uchun Toshkent va Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutlari tashkil etildi. Shuningdek, o'rta maxsus bilimli kadrlar tayyorlash maqsadida respublika hududida o'nlab qurilish kollejlari tashkil etildi. Shunga qaramasdan, sohada malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar saqlanib qoldi. Buni muhim loyihalarni amalga oshirishda xorijiy mutaxassislarni jalb etilayotganligida ham ko'rish mumkin.

3. Mustaqillik davrida tarixiy shaharlar va ulardagi me'moriy obidalarni qayta tiklash va ta'mirlash ishi davlat ahamiyatiga molik ishlar qatoridan joy oldi. Xalqimizning milliy va ma'naviy, tarixiy ildizlari bo'lgan madaniy meros obyektlarini izlab topish, ilmiy o'rganish, ro'yxatga olish, tiklash-ta'mirlash uchun loyiha smetalari tayyorlanib, amaliyotda izchil qo'llanildi.

4. Istiqlolni ilk yillarida ajdodlarimizning bizlargacha saqlanib qolgan ma'naviy va madaniy merosini asrab avaylash bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Tarixiy taraqqiyot davrlarida bunyod etilgan me'moriy obidalar davlat muhofazasiga olinib, ularni bus-butun saqlash va kelajak avlodga yetkazish choralari ko'rildi. Turli tarixiy sanalar va yubileylar munosabati bilan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Termiz, Toshkent va boshqa shaharlardagi yodgorliklar ta'mirlandi.

5. Mustaqillik yillarida yurtimiz shaharlarining talay me'moriy shaharsozlik loyihalari amalga oshirildi. Shaharlarning markazlari, ularning tarixan shakllangan "eski shahar" qismlari qayta tiklandi. Noyob jamoat binolari, zamonaviy mehmonxonalar, maktablar va litseylar, sport majmualari qad ko'tardi, bozorlar yangilandi, yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha turar-joy uylari qurilishida katta imkoniyatlar ochildi. Shuningdek, zamonaviy ko'rinishdagi jamoat binolari bunyod etilib, shaharlar chiroyiga ko'rk bag'ishladi.

6. O'zbekistonda landshaft me'morchiligi mustaqillik yillarida rivojlandi. Respublikadagi qator shaharlarning yubileylarining nishonlanishi va boshqa tadbirlar sabab shaharsozlik sohasi har tomonlama taraqqiyotga erishdi. Shaharlar me'moriy qiyofasining o'zgarishi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan birgalikda olib borilishi tufayli landshaft san'atini yanada rivojlantirish imkoniyati kengaydi. Yangidan qurilgan va qayta tiklangan ko'rkam binolar va ansambllar egallagan hududlar atrofida me'moriy muhit yaratildi. Favvoralar, yashil maysazorlar, ular yuziga yastangan gilam nusxa gulzorlar, guldor butalar, mo'jaz me'moriy shakllar, tekis va jozibador, nafis to'shamalar har bir shahar landshaft me'morchiligida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

7. O'zbekistonda mustaqillik yillarida shaharsozlik va me'morchilik sohasi yangi an'analar bilan boyitilib, me'morlar bino qurilishida jahon andozalaridan unumli foydalanishga katta e'tibor qaratdi. Shaharsozlikda xalq me'morchiligi usullarini mahalliy sharoitlarga moslab, ko'rkam va

shinam binolarni barpo etish yetakchilik qildi. Qolaversa, O'zbekistonda sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etildi.

8. Shaharlar markazlari va qishloqlarning qulay muhitini yaratish maqsadida hududni mintaqalashtirish, ko'chalar tuzilishi, jamoat piyodalar yurish zonalari, asosiy majmualari, sport inshootlari, ko'rgazma, mehmonxona kabilarga katta ahamiyat berildi. Viloyat hokimiyatlari bilan birgalikda mavjud uylarni eng kam darajada buzishni hisobga olib, birinchi navbatda bajariladigan qurilish ishlari belgilab olindi.

Dissertatsiya tadqiqotini bajarish jarayonida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Shaharsozlik va me'morchilik sohasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni zamonaviy shaharsozlik va arxitektura an'analariqa muvofiq qaytadan takomillashtirish;

2. Arxitektura va qurilish sohasida kadrlar tayyorlash va ushbu sohada xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish;

3. Respublika markaziy shaharlari bosh rejalarini tezroq tasdiqlash zarurati paydo bo'lganligini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi tadbirlarni izchil amalga oshirish;

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАККУЛОВ САРВАР АБДУАЛИМОВИЧ

**ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ АРХИТЕКТУРЫ И СОВРЕМЕННОГО
ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ
(1991-2021 гг.)**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под № B2023.2.PhD/Tar1475.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на веб-странице ученого совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)).

Научный руководитель:

Омонова Сарвиноз Ориф кизи
доктор исторических наук (DSc)

Официальные оппоненты:

Хасанов Акрам Муминович
доктор исторических наук (DSc), профессор

Абриев Рузикул Буронович
доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 по присуждению учёной степени доктора философии (PhD) по историческим наукам при Каршинском государственном университете **2026 года 10 августа в 11.00 часов** (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 427). (Адрес: 180119, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации разослан **24 июля 2026 года**
(реестр протокола рассылки № 26 от 24 июля 2026 года).



Б.Дж.Эшов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, доктор исторических

Б.Дж.Эшов

Председатель Научного
совета по присуждению
ученых степеней, доктор
исторических наук,
профессор

Н.Н.Ражабова

Ученый секретарь
Научного совета по
присуждению ученых
степеней, кандидат
исторических наук, доцент

Ф.Ш.Рахмонов

Председатель научного
семинара при Научном
совете по присуждению
ученых степеней, доктор
исторических наук (DSc),
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всём мире к настоящему времени развиваются традиции современной архитектуры и градостроительства разных стран. В ведущих странах мира активно развиваются градостроительные традиции. Международный Союз Архитекторов (МСА), Национальный совет архитектурных регистрационных советов (NCARB) и другие международные организации осуществляют ряд мероприятий, направленных на разрешение вышеуказанных проблем. Эти международные организации реализуют для населения определённые меры по совершенствованию традиций современной архитектуры и градостроительства, улучшению качества строительных работ, разработке стратегических программ.

В настоящее время в научных центрах таких государств, как США (The American Institute of Architects), Германия (Bund Deutscher Architekten), Великобритания (Royal Institute of British Architects)), Япония (Architectural Institute of Japan), Индия (Council of Architecture) ведутся исследовательские работы по актуальным проблемам архитектуры и градостроительства. В рамках этих исследований проводится ряд научных исследований по таким вопросам, как охрана исторически значимых объектов, создание современных градостроительных традиций, разработка проектов с учётом различных факторов в городском строительстве.

Научное исследование исторического опыта в области архитектуры, традиций современного градостроительства в Узбекистане за последние годы и получение заключительных выводов являются одним из актуальных вопросов, которые стоят перед историками. Начиная с первых лет независимости сфера архитектуры и строительства была определена как одно из важных направлений государственной политики, на основе которого были поставлены такие грандиозные цели, как осуществление строительства в соответствии с мировыми стандартами, удовлетворение потребностей населения в жилье, усиление охраны исторических памятников архитектуры. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Особенно сегодня, когда ускоренными темпами во всех сферах нашей жизни осуществляется огромная работа по строительству и благоустройству, страна превратилась в одну гигантскую строительную площадку, еще больше возрастают масштабы и значение вашего ответственного и почетного труда»¹. За годы независимости в Узбекистане была проведена большая эффективная работа в области охраны исторических памятников, строительства общественных зданий, развития ландшафтной архитектуры и современного градостроительства. В этом отношении в республике были приняты множество законов и нормативных документов, реализованы определенные меры. Важность использования полученных в ходе научного исследования истории данной сферы результатов в реформировании системы определяет актуальность избранной темы. Также эти коренные позитивные обновления требуют освещения истории системы на основе новых методологических подходов и источников.

Данная диссертация в определённой мере служит для выполнения задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан «Об утверждении Градостроительного кодекса Республики Узбекистан» за № ЗРУ-676 от 22 февраля 2021 года, постановлениях Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поддержке строительства жилья и промышленности строительных материалов» за № 139 от 21 февраля 2022 года, «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в сфере архитектуры и строительства» за № ПП-416 от 8 ноября 2022 года, «О мерах по реализации проекта «Программа комплексного развития городов Республики Узбекистан» с участием Азиатского банка развития» за № ПП-124 от 19 апреля 2023 года, указе «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» за № УП-60 от 28 января 2022 года и в других нормативно-правовых документах, направленных на

¹ Shavkat Mirziyoyev qurilish sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi // <https://bugun.uz/> 13-avgust 2022-yil.

совершенствование деятельности этой отрасли.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовного и образовательного развития информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности темы. Научные исследования по теме в соответствии с их периодом и содержанием целесообразно разделить на две группы: 1) литература периода независимости; 2) зарубежные издания.

В первую группу, в основном, можно включить монографии и брошюры по истории архитектуры и градостроительства, написанные авторами в годы независимости. К их числу относятся работы таких авторов, как И.А.Адылова, Н.Абдуллаев, Г.Хотамов, К.Аъзамов, М.Мирахмедов, Н.Бозорбоев, Ф.Бозорбоев, Ф.Т.Кадырова, Д.Исамухамедова, Л.А.Адылова, М.Ахмедов, Д.Назарова, А.Хасанов, М.М.Миралимов, М.Абдужабборов². В этих исследованиях в общей форме можно получить также информацию об истории архитектуры и градостроительства.

В формировании специальных терминов в архитектуре Узбекистана, в частности, терминов, связанных с реконструкцией, большое значение имеют ранние работы П.Захидова, М.Ахмедова, Д.Назилова, А.Уралова, Х.Пулатова и других ведущих специалистов³. Также вопросам реконструкции исторических мест (городов, комплексов, махаллей) посвящены монографии Х.Пулатова, Т.Маматмусаева. В ней рассматриваются методы исследования исторических мест и проектирования реконструкции с учётом требований новой эпохи⁴.

Важное значение по ландшафтной архитектуре Узбекистана играют также труды таких исследователей, как А.С.Уралов,

² Адылова И.А. Ландшафт меъморилик тарихи. – Тошкент, 2002.; Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2007. – 236 б.; Хотамов Г., Аъзамов Қ. Мустақиллик майдони. Биз билган ва билмаган тарих. – Тошкент, 2008. – 43 б.; Қодирова Ф.Т. Ўзбекистоннинг замонавий архитектураси (XX аср – XXI аср боши). – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 240 б.; Қодирова Т. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморилик тарихи. – Тошкент, 2010.; Қодирова Т. Санъат, архитектура ва шаҳарсозлик тарихи. – Тошкент, 2012.; Мустақиллик даври ўзбек меъморилик ва монументал ҳайкалтарошлик санъати. – Тошкент, 2011; Қодирова С., Абдужабборов М. Турар-жой ва жамоат бинолари лойиҳалаш. – Тошкент, 2020.

